O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHINING
QARORI

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish va takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoni, “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 18-iyuldagi PQ-3138-sonli qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-may kuni Zangiota va Sergeli tumanlariga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar hamda Sergeli tumanida jamoatchilik vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuvining 40-sonli bayoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 12-oktabrdagi 5-2020-son, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2020-yil 7-oktabrdagi 38-2020-Б-son va Moliya vazirligining 2020-yil 8-oktabrdagi 44-son qaroriga muvofiq “Akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori asosida 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab Respublikadagi barcha akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlarda 1 nafardan “yoshlar yetakchisi” shtat birligi joriy etilganligi inobatga olinsin.

2. 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston yoshlar ittifoqining akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish va takomillashtirish choralari ko‘rilsin.

Yoshlar yetakchisiga o‘z faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha yuqori samaradorlik va yutuqlarga erishgan hollarda ta’lim muassasasi rahbarining yozma murojaati asosida Kuzatuv kengashining roziligi bilan akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlarining byudjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan mukofot va zaruriy hollarda moddiy yordam ajratish tavsiya etilsin.

Yoshlar yetakchisiga ixtiyoriy ravishda (oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lsa) 0,5 stavkagacha mutaxassisligi bo'yicha o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruxsat berilsin.

3. Quyidagilar:

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang'ich tashkilotlari to'g'risida nizomi (yangi tahrirda) 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang'ich tashkilotlari tashkiliy tuzilmasi belgilangan tartibda 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika ishchi guruhi (keyingi o'rinlarda "respublika ishchi guruhi" deb yuritiladi) tarkibi 3-ilovaga, O'zbekiston yoshlar ittifoqining akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang'ich tashkilotining hujjatlar yig'majildlari nomenklaturasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Respublika ishchi guruhi:

boshlang'ich tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha uslubiy hamda amaliy ko'mak berib borsin;

boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini o'rganib, aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Yoshlar masalalari bo'yicha hududiy va respublika idoralararo kengashlari yig'ilishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Hay'at yig'ilishi hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqining Markaziy Kengashi yig'ilishlariga takliflarini kiritsin;

tashabbuskor, islohotlarni amalga oshirishda haqiqiy jonbozlik ko'rsatadigan har tomonlama munosib boshlang'ich tashkilotlar yetakchilarini rag'batlantirish choralarini ko'rsin hamda rahbarlik lavozimlari va davlat mukofotlariga tavsiya etsin.

5. O'zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy Kengashi raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarma boshliqlari hamda oliy ta'lim muassasasi rektorlari;

mazkur qaror bilan tasdiqlangan nizom va tashkiliy tuzilma asosida boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilasin hamda boshlang'ich tashkilotlar faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaratish choralarini ko'rsin;

har bir hudud miqyosida 3 (uch) tadan namunali boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'ysin va ularning tajribasini boshqa akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlariga ommalashtirsin;

haftaning payshanba kuni (har oyning birinchi, ikkinchi, uchinchi haftalarida tuman (shahar) darajasida, to'rtinchi haftasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasida) boshlang'ich tashkilotlar yoshlar yetakchilarining

malakaviy o‘quv-seminarlarini tashkil etsin;

boshlang‘ich tashkilotlar yoshlar yetakchilarini o‘rnatilgan tartibda akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi direktori o‘rinbosari lavozimlari kadrlar zaxirasiga kiritish choralarini ko‘rsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim markazi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 14-avgustdagi 38-QQ ,63- va 4-QQ-sonli qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror imzolangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vaziri **A.Toshqulov**

Toshkent sh.,
2021-yil “19”- may,
38-F/H-son

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi raisi **A.Jumaboyev**

Toshkent sh.,
2021-yil “9”- aprel,
8 F/H-son

KELISHILDI

Bandlik va mehnat
munosabatlari vaziri **N.Xusanov**

Toshkent sh.,
2021-yil “19”- may,
15-2021-F/H-son

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2021 yil “16” 11 2021 dagi 38-11/16 11/16 va 15 2021-son qaroriga 1-ilova

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish va takomillashtirish to‘g‘risida
NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoni, “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 18-iyuldagi PQ-3138-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-may kuni Zangiota va Sergeli tumanlariga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar hamda Sergeli tumanida jamoatchilik vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuvining 40-sonli bayoniga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining (keyingi o‘rinlarda Yoshlar ittifoqi deb yuritiladi) akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang‘ich tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda Boshlang‘ich tashkilot deb yuritiladi) faoliyatini tartibga soladi.

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Boshlang‘ich tashkilotlar Yoshlar ittifoqining maqsad-vazifalarini ta’lim muassasasi miqyosida ro‘yobga chiqaradigan, ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilar va 31 (o‘ttiz bir) yoshgacha bo‘lgan yosh o‘qituvchilarni o‘z atrofida birlashtiradigan, ularning manfaatlari va huquqlarini himoya qiladigan eng quyi tuzilma hisoblanadi.

2. Boshlang‘ich tashkilot, akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlarining Yoshlar ittifoqi maqsad-vazifalariga xayrixoh bo‘lgan kamida 5 (besh) nafar yoshlar tashabbusi bilan tuziladi hamda Ittifoqning mahalliy kengashlari tomonidan ro‘yxatga olinadi hamda o‘zlari joylashgan hududdagi Ittifoqning mahalliy kengashlariga birlashadi.

3. Boshlang‘ich tashkilotlar akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlarida O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini amalga oshiradi.

4. Boshlang‘ich tashkilotlar, yoshlar yetakchisi va yetakchilar kengashi a’zolari faoliyat yo‘nalishi, qiziqishi hamda yoshlarning talab-istaklaridan kelib chiqqan holda, Ittifoqning mahalliy va hududiy kengashlari qoshida o‘z tashkilotlari *(uyushmalar, markazlar, klublar, to‘garaklar va boshqalar)*ni tuzish tashabbusini bildirishi yoki mavjud tashkilotlarga ixtiyoriy qo‘shilishi mumkin.

5. Boshlang‘ich tashkilotlar faoliyati O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tegishli mahalliy kengashlari hamda ta’lim muassasasi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

6. Boshlang‘ich tashkilot o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O‘zbekiston

yoshlar ittifoqi Ustavi, ta'lim muassasasi faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar hamda mazkur Nizom asosida amalga oshiradi.

II-bob. Boshlang'ich tashkilotning maqsadi va vazifalari

7. Boshlang'ich tashkilotning asosiy maqsadi – ta'lim muassasasida yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun munosib sharoit yaratib berishga ko'maklashish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashga ko'maklashishdan iborat.

8. Boshlang'ich tashkilot o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan birgalikda pedagogik jamoa, faol o'quvchilar, jamoatchilikni jalb qilgan holda o'quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, ularni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va kamol toptirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy loyihalarni amalga oshirish;

ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan birgalikda o'quvchilarning intilishi va qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy faolligini oshirish, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga ko'maklashishga qaratilgan ko'rik-tanlovlar, bilimdonlar bellashuvi, sport musobaqalari, ko'rgazmalar, ijodiy uchrashuvlar tashkil etish;

ta'lim muassasasi o'quvchilari o'rtasida jismoniy tarbiya va sport, harbiy-vatanparvarlik, sog'lom turmush tarzi va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish;

ta'lim muassasasi o'quvchilarining davomatini yuritish, darslarni muntazam qoldirib kelayotgan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qaytarishga qaratilgan tizimli ishlarni sinf rahbari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari bilan amalga oshirish;

ta'lim muassasasidagi besh muhim tashabbus doirasida faoliyati yo'lga qo'yilgan madaniyat, san'at, kitobxonlik, sport, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha va boshqa yo'nalishlardagi to'garak va klublardagi o'quvchilar ishtiroki bo'yicha monitoring yuritish, shuningdek maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari hamda "Yoshlar markazi" bilan hamkorlik qilish;

ta'lim muassasasi o'quvchilari o'rtasida yoshlar turizmini rivojlantirish, ularning o'zlari istiqomat qilayotgan hududdagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylar, teatrlar, mustaqillik davrida barpo etilgan inshootlarga tashriflarini uyushtirish;

ta'lim muassasasi psixologi bilan hamkorlikda o'quvchi-yoshlar o'rtasida tazyiq va zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarini olib borish hamda so'rovnomalar o'tkazish;

o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularni o'zlari qiziqqan kasb-hunarlari bo'yicha tegishli tashkilotlarga sayohatlarini tashkil etish, shuningdek, ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan birgalikda o'quvchilarini iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat amaliyotlarini tashkil etish;

Yoshlar ittifoqi safiga o'quvchilarni jalb etish maqsad-vazifalarini tushuntirish va targ'ib qilishga qaratilgan tashviqot ishlarini olib borish;

ta'lim muassasasida Yetakchilar Kengashi faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish;

ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar manfaatlarini himoya qilish, ularning muammolari, taklif-istaklarini o'rganish va hal etishda ko'maklashish;

ta'lim muassasasidagi o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish, darsliklar va kutubxonadan foydalanish darajasini o'rganib borish, o'quvchilar o'rtasida so'rovlar o'tkazish hamda bu boradagi muammolarni pedagogik kengash kun tartibiga kiritish.

III-bob. Boshlang'ich tashkilotning huquq va majburiyatlari

9. Boshlang'ich tashkilotning huquqlari quyidagilardan iborat:

ta'lim muassasasi yoshlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan o'quv, tarbiya va boshqa jarayonlarda ishtirok etish, mas'ul xodimlar va o'qituvchilardan zarur axborot va ma'lumotlarni olish va nazorat qilish;

ta'lim muassasasidagi o'qituvchilar saviyasi va o'quvchilar bilan munosabati, shuningdek, kutubxona, sport ob'ektlari faoliyati yuzasidan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

ta'lim muassasasidagi sharoitlardan to'la foydalanish, yoshlar ishtirokida to'garaklar, klublar tashkil etish, ish rejadagi chora-tadbirlarni ta'lim muassasasi tomonidan moliyalashtirilishini so'rash;

ta'lim muassasasi yoshlarining muammolari, taklif-tashabbuslari yuzasidan ta'lim muassasasi rahbari va yuqori tashkilotlarga takliflar kiritish;

Nizomda belgilangan tartibda ta'lim muassasasida o'zining tuzilmalarini tashkil etish;

faoliyatiga doir ma'lumotlarni tarqatish va targ'ib etish.

Boshlang'ich tashkilot tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanishi mumkin.

10. Boshlang'ich tashkilotning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Yoshlar ittifoqi hamda ta'lim muassasasi tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar doirasida faoliyat yuritish, ularda belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish;

Yoshlar ittifoqining mahalliy, hududiy va respublika kengashlari, ta'lim muassasasi pedagogik kengashi hamda rahbariyatining tegishli topshiriqlari va ko'rsatmalarini bajarish;

Yoshlar ittifoqining mahalliy kengashi hamda ta'lim muassasasi rahbariga o'z faoliyati to'g'risida hisobotlarni o'rnatilgan tartibda taqdim etib borish;

boshlang'ich tashkilot uchun ajratilgan xonalar, moddiy-texnik vositalar va limitlardan to'g'ri foydalanish;

ta'lim muassasasining o'quv, tarbiya va boshqa ishlariga ko'maklashish.

IV-bob. Boshlang'ich tashkilotning tashkiliy tuzilishi

11. Boshlang'ich tashkilotning tashkiliy tarkibiga quyidagilar kiradi:

umumiy (hisobot-saylov) yig'ilishi;

boshlang'ich tashkilot kengashi (yoshlar yetakchisi, koordinatorlar kengashi);

boshlang‘ich tashkilot qoshidagi yoshlar tuzilmalari (to‘garaklar, klublar va boshqalar);

guruh koordinatori.

12. Boshlang‘ich tashkilotning hisobot-saylov yig‘ilishi quyidagi tartibda tashkil etiladi:

hisobot-saylov yig‘ilishi boshlang‘ich tashkilotning rahbar organi bo‘lib, har o‘quv yilining boshi (sentabr oyi)da o‘tkaziladi.

hisobot-saylov yig‘ilishida boshlang‘ich tashkilotning hisoboti tinglanadi, uning faoliyatiga baho beriladi, kengash tarkibi shakllantiriladi, yoshlar yetakchisi tanishtiriladi, koordinatorlar kengashi a’zolari saylanadi, kelgusidagi asosiy vazifalar va o‘quv yili ish rejasi belgilab olinadi.

ta’sis yig‘ilishda yoshlar yetakchisi tanishtiriladi hamda koordinatorlar kengashi a’zolari saylanadi.

13. Boshlang‘ich tashkilot kengashining faoliyati quyidagicha tashkil etiladi:

boshlang‘ich tashkilot kengashi ijrochi organ bo‘lib, boshlang‘ich tashkilotning maqsad-vazifalari va rejalarini to‘liq bajarilishini ta’minlaydi;

boshlang‘ich tashkilot kengashi hisobot-saylov yig‘ilishida kamida 8 nafar a’zolardan iborat (yoshlar yetakchisidan tashqari) tarkibda ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylanadi;

boshlang‘ich tashkilot kengashi faoliyatiga yoshlar yetakchisi rahbarlik qiladi.

14. Yetakchilar kengashi quyidagicha shakllantiriladi:

yetakchilar kengashi guruh, akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar, mahalliy, hududiy va respublika miqyosida saylanadi hamda faoliyat olib boradi;

yetakchilar guruhlarda saylangan yo‘nalishlari bo‘yicha akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlari, mahalliy, hududiy hamda respublika yetakchilar kengashiga faqat bir yo‘nalishda yetakchilik qilish huquqiga ega.

15. Yetakchilar kengashi Yoshlar ittifoqining o‘zini o‘zi boshqarish organi hisoblanadi.

16. Yetakchilar kengashi a’zolari muassisning Ijroiya qo‘mitasi qarori bilan tasdiqlangan imtiyozlardan foydalanadi.

17. Boshlang‘ich tashkilot faoliyatini tashkil etish uchun guruhlar, mehnat jamoasi va o‘quvchilar turar-joylarida yetakchilar kengashi faoliyat yuritadi.

18. Yoshlar ittifoqi yetakchisining faoliyati quyidagicha tashkil etiladi:

Yoshlar ittifoqi yetakchisi ta’lim muassasasining o‘quvchilari orasidan saylanadi;

besabab dars qoldirmay, namunali xulq-atvori bilan tengdoshlariga o‘rnak ko‘rsatadi;

yetakchilik, tashkilotchilik qobiliyatiga ega, tengdoshlarini o‘zi ortidan ergashtira oladi va jamoat ishlarida faol ishtirok etadi;

Yoshlar ittifoqi faoliyati, shuningdek, o‘zi boshqaradigan yo‘nalishlar bo‘yicha yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi talab etiladi;

Yoshlar ittifoqi yetakchisi boshlang‘ich tashkilot faoliyatining samarali tashkil etilishini muvofiqlashtiradi, guruh yetakchilar kengashlari faoliyatiga rahbarlik qiladi, tizimdagi barcha yetakchilar faoliyatiga uslubiy ko‘mak ko‘rsatadi, taklif-tashabbuslarini yoshlar yetakchisiga olib chiqadi;

umumiy yetakchilar faoliyatiga rahbarlik qiladi.

19. Yetakchilar kengashi a’zolari quyidagi tarkibda shakllantiriladi:

Ta’lim-tarbiya loyihalari koordinatori;

Volontyorlikni qo‘llab-quvvatlash loyihalari koordinatori;

Startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash koordinatori;

Sport va harbiy vatanparvarlik loyihalari koordinatori;

20. Yetakchilar kengashi a’zolarining vazifalari quyidagilardan iborat:

A) Ta’lim-tarbiya loyihalari koordinatori – o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida Yoshlar ittifoqining maqsad-vazifalarini targ‘ib etadi, ularda milliy g‘urur, vatanparvarlik va fidoiylik tuyg‘ularini shakllantiradi, ma’naviy kamolotini yuksaltiradi, shuningdek, akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlarning ichki tartib-qoidalariga o‘quvchilarning to‘liq rioya etishi, tarbiyasi og‘ir (profilaktik nazoratda turgan), o‘zlashtirishi past o‘quvchilar bilan ishlash chora-tadbirlarini belgilaydi, olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi;

B) Volontyorlikni qo‘llab-quvvatlash loyihalari koordinatori – kam ta’minlangan oila farzandlari, yakka tartibda uyda ta’lim olayotgan o‘quvchilar bilan ishlaydi, ularning ma’nan sog‘lom shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi, keksa va nafaqadagi faxriylar holidan xabar olish ishlarini tashkil etadi, olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi, o‘quvchilarning darsdan tashqari bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etadi hamda iqtidori, iste’dodi, ijodiy faolligi, tashabbuskorligini rivojlantirish, intellektual qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshiradi, olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi, yoshlar ittifoqi faoliyatiga oid ma’lumotlar, o‘tkazilgan tadbirlarni ta’lim muassasasi devoriy gazetalari, ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlaydi hamda ta’lim muassasasi radiosi faoliyatini tashkil etadi, olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi

G) Startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash koordinatori – ta’lim muassasasi o‘quvchilarini ta’lim yo‘nalishidan kelib chiqqan holda kasb-hunarga yo‘naltiradi, o‘quv amaliyotining mazmunli o‘tkazilishini ta’minlaydi, bitiruvchilar uchun mehnat yarmarkalari, korxona, tashkilot va muassasalarga tashriflar uyushtiradi, o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda yoshlar yetakchisiga ko‘maklashadi, olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi;

D) Sport va harbiy vatanparvarlik loyihalari koordinatori – o‘quvchilar o‘rtasida ommaviy sport tadbirlarini tashkil etadi, harbiy sport mashg‘ulotlari bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazadi, olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi;

20. Guruh koordinatori ta'lim muassasasining Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti a'zolari bo'lgan o'quvchilar orasidan ovoz berish yo'li bilan bir yil muddatga saylanadi;

Guruh koordinatori boshlang'ich tashkilot maqsad-vazifalarini o'z guruhida targ'ib etish bilan shug'ullanadi;

Guruhdagi o'quvchilar (tengdoshlari)ning davomatini yuritadi va ta'lim muassasasidagi yoshlar yetakchisi hamda guruh rahbariga ko'maklashadi;

ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etiladigan ko'rik-tanlovlar, bilimdonlar bellashuvi, sport musobaqalari, ko'rgazmalar, ijodiy uchrashuvlarda guruhdagi o'quvchilar (tengdoshlari)ning faol ishtirok etishida guruh rahbariga yordam beradi;

guruhdagi o'quvchilar (tengdoshlari)ning taklif-tashabbuslarini boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisiga olib chiqadi.

21. Boshlang'ich tashkilot tizimida yoshlarning qiziqishi va taklif-istaklaridan kelib chiqib, "Munozara", "Zakovat", "Drama" to'garaklar (klublar) va boshqa tuzilmalar tashkil etilishi mumkin.

22. Boshlang'ich tashkilot qoshidagi tuzilmalar (to'garak, klub va boshqalar)ga koordinatorlar saylanadi.

23. Boshlang'ich tashkilot qoshidagi tuzilmalar (to'garak, klub va boshqalar) faoliyatini tashkil etishga ta'lim muassasasining tegishli mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi-pedagoglari jalb etiladi hamda ularning faoliyati yoshlar yetakchisi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

V-bob. Yoshlar yetakchisi faoliyatini tashkil etish . Yoshlar yetakchisining vazifalari va vakolatlari

24. Yoshlar yetakchisi lavozimiga 35 (o'ttiz besh) yoshdan oshmagan, yetakchilik qobiliyati, notiqlik mahorati, tashabbuskorlik, keng jamoatchilik bilan ishlash va ish yuritish bo'yicha bilim-ko'nikmasiga ega bo'lgan kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumotli (pedagog, texnika, psixolog, sotsiolog, ijtimoiy ish, menejment ixtisosligiga ega) mutaxassislar Boshlang'ich tashkilotlarning yoshlar yetakchisi lavozimiga nomzodlarni tanlash bo'yicha tanlov komissiyasi tavsiyanomasiga asosan ta'lim muassasasi direktorining tegishli buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

2021-2022-o'quv yilidan boshlab lavozimiga ish yuritish bo'yicha bilim-ko'nikmasiga ega bo'lgan kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumotli (pedagog, texnika, psixolog, sotsiolog, ijtimoiy ish, menejment ixtisosligiga ega) mutaxassislar qabul qilinadi.

Bunda olis hududlarda joylashgan ta'lim muassasalariga istisno tariqasida o'rta-maxsus (pedagogik) ma'lumotga ega nomzodlarni tanlash bo'yicha tanlov komissiyasi tavsiyanomasiga asosan ta'lim muassasasi direktorining tegishli buyrug'i bilan lavozimga tayinlangan Boshlang'ich tashkilotlarning yoshlar yetakchisi faoliyatini yakuniga qadar o'z ishini olib boradi.

25. Yoshlar ittifoqining mahalliy kengashlari ta'lim muassasalari bilan birgalikda yoshlar yetakchisi lavozimiga nomzodlarni aniqlaydi hamda nomzodlarni tanlash bo'yicha tuzilgan hududiy tanlov komissiyasiga taqdim etadi.

Hududiy tanlov komissiyasi quyidagi tarkibda shakllantiriladi:

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hududiy kengashi raisi;

Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi boshlig‘i;

hududiy ichki ishlar boshqarmasining huquqbuzarliklar profilaktika boshqarma boshlig‘i (kelishuv asosida);

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hududiy kengashlari apparatining boshlang‘ich tashkilot yetakchilari bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassis, “Kamalak” bolalar tashkiloti koordinatori.

Boshlang‘ich tashkilotlarning yoshlar yetakchisi lavozimiga nomzodlarni tanlash bo‘yicha tanlov komissiyasi mazkur nizomga muvofiq faqatgina hududlarda tashkil etiladi.

Boshlang‘ich tashkilotlarning yoshlar yetakchisi lavozimiga nomzodlarni tanlash bo‘yicha tanlov komissiyasi tomonidan yoshlar yetakchisi lavozimiga nomzodlar suhbatdan o‘tkaziladi, munosib deb topilgan nomzodga tavsiyanoma beriladi.

Boshlang‘ich tashkilotlarning yoshlar yetakchisi lavozimiga nomzodlarni tanlash bo‘yicha tanlov komissiyasi tavsiyanomasi namunasi nizomga ilova qilinadi.

Boshlang‘ich tashkilotlarning yoshlar yetakchisi lavozimiga nomzodlarni tanlash bo‘yicha tanlov komissiyasi tavsiyanomasi bilan yoshlar yetakchisi 2,5 (ikki yarim) yil davomida o‘z faoliyatini olib boradi.

Yoshlar yetakchisi o‘z ixtiyoriga ko‘ra lavozimidan ozod etilsa, yoki muvofiqlashtiruvchilar tomondan faoliyati qoniqarsiz deb topilsa navbatdan tashqari Boshlang‘ich tashkilotlarning yoshlar yetakchisi lavozimiga nomzodlarni tanlash bo‘yicha tanlov komissiyasi chaqirtiriladi.

26. Yoshlar yetakchisini o‘z ixtiyoriga ko‘ra yoki boshqa sabablar bilan lavozimidan ozod etish masalasi hududiy tanlov komissiyasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

27. Yoshlar yetakchisi vazifasi yuklatilgan yoshlar akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar direktorining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi hisoblanadi va maqomi bo‘yicha uning o‘rinbosariga tenglashtiriladi.

28. Yoshlar yetakchisi quyidagi vazifalarni bajaradi:

Yoshlar ittifoqining ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti faoliyatiga rahbarlik qiladi;

akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar yoshlarining huquq va manfaatlarini himoya qiladi;

yoshlar masalalariga oid davlat qarorlari va dasturlari ijrosini ta’minlaydi;

boshlang‘ich tashkilot faoliyatini tashkil etadi va uning nomidan ish yuritadi;

boshlang‘ich tashkilot tarkibidagi to‘garaklar, klublar va boshqa tuzilmalar ishini boshqaradi;

yo‘nalish koordinatorlariga tashkiliy-uslubiy ko‘mak beradi, taklif-tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi;

yuqori tashkilotlar va ta’lim muassasasi rahbariga boshlang‘ich tashkilot faoliyati yuzasidan so‘ralgan ma’lumot, axborot va hisobotlarni taqdim etib boradi;

boshlang‘ich tashkilotda belgilangan nomenklatura asosida ish yuritadi, yuqori tashkilotlar va ta’lim muassasasi rahbariyati topshiriqlarining bajarilishi ta’minlaydi;

boshlang‘ich tashkilot uchun ajratilgan xona, moddiy-texnika vositalari va mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta’minlaydi.

29. Yoshlar yetakchisi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining pedagogik kengashi va yoshlar masalasiga oid boshqa komissiyalarga a’zo sifatida kiritiladi.

30. Yoshlar yetakchisi Ittifoqning mahalliy kengashi va ta’lim muassasasi direktoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunadi.

VI-bob. Boshlang‘ich tashkilot faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlash

31. Akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar tomonidan boshlang‘ich tashkilot alohida xona, ish stoli va stullar, javonlar, kompyuter jamlanmasi, printer, proyektor, ekran, raqamli fotoapparat, flipchart hamda zaruriy devonxona mollari bilan ta’minlanadi.


32. Boshlang‘ich tashkilot faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar, uslubiy qo‘llanmalar va tarqatma materiallar bilan Yoshlar ittifoqi tomonidan ta’minlanadi.

VII-bob. Boshlang‘ich tashkilot faoliyatini to‘xtatish

34. Boshlang‘ich tashkilot faoliyatini to‘xtatishga asosli sabablar bo‘lganda, umumiy yig‘ilish qarori bilan uning faoliyati tugatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2021 yil “17” avgustdagi 38-VK va 251-son qaroriga 2-ilova

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang‘ich tashkiloti
TASHKILIY TUZILMASI



O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2021 yil “15” may dagi 38-VK va 1208-son qaroriga
3-ilova

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika ishchi guruhi
TARKIBI

Y.Absoatov	- Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining axborot texnologiyalari va yoshlar bo'yicha o‘rinbosari, ishchi guruhi raisi
I.Xoldarova	- O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o‘rinbosari - “Kamalak” bolalar tashkiloti raisi, ishchi guruhi hamraisi
O.Bazarov	- Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
J.Eshquvvatov	- O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi Boshlang‘ich tashkilot yetakchilari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, a’zo
Lavozimiga ko‘ra	- O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshidagi “Yetakchi” yoshlar markazi NNT direktori, a’zo
Lavozimiga ko‘ra	- O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshidagi “Respublika yoshlar markazi” NNT direktori, a’zo

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2021 yil “15” mart dagi 38-04/1-111 va 8-2021-son qaroriga
4-ilova

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi boshlang‘ich tashkilotining hujjatlar yig‘majildlari
NOMENKLATURASI

Yig‘majild indeksi	Yig‘majild (jild, qism) sarlavhasi	Yig‘majild qismlari soni	Yig‘ma jildlar (jildlar, qismlar)ni saqlash muddati	Izoh
1	*2*	*3*	*4*	*5*
01	Boshlang‘ich tashkilot asosiy faoliyatiga doir норматив-huquqiy hujjatlar	1	Doimiy	Reestr papka
02	Boshlang‘ich tashkilot Kengashi, akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar Kengashi a’zolari, guruh koordinatorlarining shaxsiy hujjatlari	3	3 yil	Reestr papka
03	Boshlang‘ich tashkilotning kollegial organlari bayonlari va qarorlari *(Umumiy (hisobot-saylov) yig‘ilishi, BT Kengashi yig‘ilishi)*	2	2 yil	Reestr papka
04	Boshlang‘ich tashkilotning yillik ish rejasi va uning bajarilishi yuzasidan hisobotlar, ma’lumotlar	2	3 yil	Reestr papka
05	O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga oid amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar	2	3 yil	Reestr papka
06	O‘zbekiston yoshlar ittifoqining mahalliy, hududiy, Markaziy Kengashlari rahbar va mas’ul xodimlarining Boshlang‘ich tashkilotga tashriflarini qayd etish kitobi	1	Doimiy	Kitob

Izoh: *Boshlang‘ich tashkilotining hujjatlar yig‘majildlari nomenklaturasi zaruratga ko‘ra o‘zgartirilganda mas’ul tashkilotlarning qo‘shma xati orqali hududlarga yetkaziladi.*